

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

Ro'yxatga olindi  
№ \_\_\_\_\_  
2015 - y. "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_

Vazirlikning 2015 - yil "\_\_\_\_"  
\_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ - sonli  
buyrug'i bilan tasdiqlangan

**VOKAL IJROCHILIGI**

**FAN DASTURI**

Bilim sohasi: 100000 - Gumanitar

Ta'lim sohasi : 110000 - Pedagogika

Bakalavriat yo'nalishi: 5111100 - Musiqa ta'limi

**TOSHKENT- 2015**

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha o'quv-uslubiy birlashmalari faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2015-yil "\_\_\_\_" \_\_\_\_\_ - son majlis bayoni bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida ishlab chiqilgan.

**Tuzuvchilar:**

S. Karimov «Musika ta'limi» kafedrasida dotsenti

D.I.Salimova - «Musika ta'limi» kafedrasida o'qituvchi

D.Otepbergenova - «Musika ta'limi» kafedrasida o'qituvchi

**Taqrizchilar:**

Lutfullayev A.K. - O'zbekiston davlat konservatoriyasi professori

Xalilov F.N.- Nizomiy nomidagi TDPU professori p.f.d.

Fan dasturi Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o'quv-uslubiy kengashida tavsiya qilingan (2015 - yil «\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_ - sonli bayonnoma).

## KIRISH

Mazkur fan dasturi: 5111100 – Musiqa ta'limi ta'lim yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda talabaning shu fan bo'yicha egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari minimumi aniqlangan ya'ni ovoz apparatining tuzilishi va uni boshqarish, vokal to'g'risidagi asosiy tushunchalari bo'yicha metodik ko'rsatmalar tavsiya etilgan.

Dasturda badiiy-ijrochilik tomonlarini puhta o'zlashtirilishiga, talabalarning qo'shiqlari repertuarini hilma-hil shakl va harakterdagi rang-barang asarlar bilan boyitib borishga alohida e'tibor berilgan.

### Fanning maqsadi va vazifalari

“Vokal ijrochiligi” fanning asosiy **maqsadi** – vokal san'ati vositasida bo'lajak musiqa o'qituvchilarining estetik va badiiy didini tarbiyalash, professional uslubda kuylash malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Fanning **vazifalari**- dars jarayonida talabalarga ta'lim va tarbiya berish, ularni dunyo standartlariga javob beradigan chuqur bilimli, yuqori malakali mutahassis qilib tayirlash, vokal pedagogikasining sistemalilik, izchillik, oddiydan murakkabga o'tish, individual yondashish kabi qator didaktik tomonlari bilan tanishtirish.

### Fan bo'yicha talabalarning bilimiga, ko'nikma va malakasiga qo'yiladigan talablar:

#### **Bakalavr:**

- vokal pedagogikasining sistemalilik, izchillik, oddiydan murakkabga o'tish, individual yondashish kabi qator didaktik tomonlarini; tovush apparatining tuzilishi va harakatlanishi xususiyatlarini; vokal to'g'risidagi asosiy tushunchalarni; ovoz hosil qilish va uning turlarini; honandalik nafasi, artikulyatsiya, intonatsiya va dinamik belgilarni bilishi va **tasavvurga ega bo'lishi**;

- nafasni qovurg'aning pastiga, qoringa shovqinsiz olish va uni tejamli sarflash, barcha registrlarda yuqori holatda ovoz hosil qilib kuylay olish, sof va toza kuylash

- so'zlarni orfoepiya qoidalariga muvofiq talaffuz qilib kuylash, turlicha ovoz hujumlari bilan kuylay olish, legato va stakkatoda kuylash kabi ko'nikmalariga ega **bilishi, malaka hosil qilishi va amalda qo'llay olishi**;

- vokal siru-asrorlarini chuqur bilish va yuqori professional uslubda kuylay olish, musiqa asbobi jo'rligida hamda unison yoki ko'p ovozli ansambllar jo'rligida yakka honanda sifatida kuylash, ovoz va musiqa asbobi uchun yozilgan asarlarni ifoda etish shtrihlari, stili va harakteri nuqtai nazardan tahlil qilish va **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

### Fanning o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi

“Vokal ijrochiligi” fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib 5,6,7 semestrlarda o'qitiladi. Fanni o'zlashtirish uchun talabalar solfedjio, dirijyorlik, hor va horshunoslik, musiqa nazariyasi, musiqa tarihi, garmoniya, cholg'u ijrochiligi,

pedagogika, psixologiya va boshqa musiqaga oid bo'lgan fanlardan tegishli bilim, malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

### **Fanning ta'limdagi o'rni**

Vokal ijrochiligi faniga kirgan musiqa nazariyasi asoslari, garmoniya, musiqiy asarlar tahlili fanlari o'zaro chambarchas boglangan bo'lib, hamda solfedjio, musiqa tarihi, cholg'u ijrochiligi va boshqa musiqa ta'limni asosiy kurslar bilan aloqadir.

### **Fanni o'qitishda ahborot va pedagogik texnologiyalar**

O'qitishning samaradorligi oshirish uchun o'qitishning ilg'or va zamonaviy usullaridan foydalanish, mos ravishdagi informatsion-pedagogik texnologiyalarni tadbiq qilish muhim ahamiyatga egadir. Fanni o'zlashtirishda darslik, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ma'ruza matnlari, ko'rgazmali materiallar, "Monomavzuli anjuman" kabilardan foydalanish, audio va video apparatura, kompyuter texnikasi, plastinkalar va ta'limning boshqa TV dan foydalaniladi.

## **ASOSIY QISM**

### **Fanning amaliy mashg'ulotlari mazmuni**

Talabalarga o'quv yili davomida har semestrda 6-tadan vokal asarlari beriladi, shundan: 3-ta yirik asar. Shulardan birinchisi albatta vokal ko'nikmalarini egallash va ovozni akademik yo'lda shakllantirishga bevosita yordam beradigan vokaliz (so'zsiz qo'shiq) bo'lishi lozim;

Musiqa o'qitish metodikasi kafedrasida talabalarning ovoz imkoniyatlari va vokal tayyorgarligi turlicha bo'lganligini hisobga olgan holda, dasturning repertuarlar ro'yhatiga murakkabligi turlicha bo'lgan asarlar kiritiladi.

Ro'yhatga kiritilgan asarlarini talabaning ovoz diapozoniga mos tonlikka transpozitsiya qilib berish tavsiya etiladi.

Uzluksiz o'tkaziladigan akademik kontsertlar, turli hil ko'rik-tanlovlar, ya'ni "O'zbekistan – Vatanim manim", "Respublika qo'shiq bayrami" va boshqa yosh vokalistlar konkurslarida qatnashishlari talabalarni vokal malakalarini mustahkam egallashlariga yordam beradi.

Romanslar bir ovoz uchun yozilgan, turli mavzu, harakter va tuzulishdagi vokal kamer asari bo'lishi mumkin. Bu janr jahon va o'zbek kompozitorlari asarlarida yahshi rivojlangandir. O'zbekiston kompozitorlari omma o'rtasida tarqalgan ashulalar ohangida romanslar yaratib, bu janrni yanada boyitdilar. Ular asosan Navoiy, Furqat, Muqimiy g'azallariga S.Yudakov, M.Burhonov, M.Ashrafiy, T.Sodiqov va boshqa kompozitorlar tomonidan yaratilgandir. Talabalar dasturida qo'llaniladigan musiqiy drama va operalardan ariyalar mukammallashgan keng ko'lamda, lirik va dramatik mazmunli asarlar hisoblanadi.

Bu asarlar talabalarning vokal-texnik bilimlarini yanada chuqurroq egallashi, kosta-abdominal, ya'ni aralash nafas ustida ishlashi, yumshoq hujum mashqi, aniq intonatsiya, artikulyatsiya, legato, stakkato, harakatchanlik, kantilena, arpedjio,

filirovka uslublarini o'rganish, asarning badiiy tomonlarini mukammal o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'lib, ashula aytish mahoratini oshiradi.

Halq va ommaviy qo'shiqlarni ijro etishda akademik uslub bilan bir qatorda qorin bo'shlig'idan foydalaniladigan ishkomi uslubi o'quv amaliyotida keng qo'llanilmoqda, bu esa talabani tabiiy, materiallardan foydalangan holda nafas bilan aytib o'rganishda katta ahamiyatga egadir.

## **OVOZLAR BO'YICHA TAHMINIY REPERTUAR**

I.Xamroev: "Binafsha". "Vatan qo'shig'i".

R. Shuman: "Prihodit vesna". "Vechernyaya zvezda".

E.Shentirmay: "V mire yest krasavitsa odna".

X.Raximov: "Yangi yil valsi", "Festival valsi", "Ishqingda yonib", "davron suraylik"

Sh.Ramazanov: "O'zbekiston", "Sevdim dildan",

F.Nazarov. "Qaydasan", "Yoshlik", "Sensan bog'u gulshan", "SHodlik qo'shig'i"

V. Motsart "Toska po vesne", "Svadba Figaro" operasidan Barbarina ariyasi "Uronila, poteryala",

M. Leviev "Paxta qo'shig'i"

F. SHubert "Prekrasnaya melnichixa"

D.Omonullaeva "Baxor", "Yoshligim", "Tinchlik nashidasi", "Bir-bingni asra O'zbekim", "Buvijonim", "Sen mening Vatanimsan", "Yakkadir Toshkent",

K. Kenjaev "Yoshlar qo'shig'i", "Yoshlik yo'llari chaman"

Q. Mamirov "Istiqlol xaqida qo'shiq"

M.Burxonov "Baxor qo'shig'i", "Kapalak"

M.Glinka "Javaronok", "V krovi gorit ogon jelanya", "Ne iskushay menya bez nujdi", "Tolko ya uznal tebya, javaronok"

K.Kenjaev "Nozik savol", "O'zbek qizlari", "Sevgi desam", "Qiz qo'shig'i"

X.Izomov "Sevmasdan bo'lurmu", "Sevikli yor"

M.Leviev "Go'zal Toshkent", "Yoshlik chog'imda Yoqub va karomat dueti", "O'rik gullaganda", "SHoxista va Tursunali dueti", "Farg'ona"

N.Norxo'jaev: "Yoshlik", "Yaxshi bola", "Paxtakor qiz", "Uchqur yillar".

A.Varlamov "Na zare ti yeyo ne budi", "Blagodarnost"

I.Akbarov "Alla", "Ra'no", "Qaydasan"

R.Abdullaev "Baxor qo'shig'i" "Rozimasman", "Alla"

A. Boboev "Pesnya yunosti", "Ya vstretel devushku"

S.Yudakov "Davra qo'shig'i", "Kornaval valsi", "Dugonalar"

B. Umidjonov "Meni eslagin"

R. Lagidze "Pesnya o Tbilisi"

V. Kyara "Gordaya Prelest osanki"

A.Novikov "Dorogi"

V. Shainskiy "Goluboy vagon", "Ulibka"

G'. Qodirov "Do'stlik qo'shig'i", "Ayajonim koyimang", "Baxor keldi", "Ona qo'llari", "Mirzacho'l yor-yori"

A. Dargomijskiy «Mne grustno», «Ya vas lyubil»  
 Gruzin xalq qo'shig'i "Suliko"  
 L. Betxoven "Surok"  
 Xoliqov "Iltijo"  
 B. Savelev "Pesnya Leopolda"  
 T. Djordani «O, miliy moy»  
 Ik. Akbarov «Alla», "Qalam qoshingdan", "Qaydasan", "Yor kelar"  
 S.Jalilov "Pari ro'yim", "Xusni tanxoni o'ylayman", "Birinchi va'da"  
 B. Makrousov "Odinokaya garmon"  
 I.Gribulin "Promalnaya"  
 A. Muxamedov "Do'stlik qo'shig'i", "Jon qizlar"dan "Sulton qo'shig'i", "Etti qiz", "Alla"  
 O'zbek xalq qo'shig'i "CHaman ichra"  
 A. Ribnikov "Ya tebya nikogda ne zabudu", "Kriliatie kacheli"  
 S.Namin "Mi jelaem schastya vam!"  
 A. Babadjanyan "Verni mne muziku"  
 Z. Djabbaradze "Sureyya"  
 M. Burxonov "Maftuningman", "Gul diyorim"  
 M.Nasimov "Yuragimning sezarsan"  
 A.Karangauz "Lyubimiy glaza"  
 D.Zokirov "O'zgacha"  
 K. Jabborov, D. Zokirov: «Lolazor aylab keling»  
 S. Jalil: «Gulnar», «Chorvoqdan dovrug' solay», «Ilhom parisi», "Gulshanda yor ko'rindi", "Ayt".  
 D. Zokirov, S.Boboiev "Gul desam".  
 D. Zokirov, "Sayoxat roxat", "Intizor etding meni".  
 F. Alimov "Oppoq qandim"  
 A. Mansurov "Quvnoq bolalar", "Talabalar qo'shig'i", "Xayir maktab"  
 S. Xayitboev "Kimning xati chiroyli?"  
 E. Shvarts "Xayot seni sevaman", "Eru osmon bizniki"  
 T. Jalilov "Otmagay tong", "VAfodoringa ayt"("Nurxon"musiqali drammasidan, "O'ynasin")  
 S. Kalanov: «Ey, sarvi ravon".  
 K, Kenjaev: «Sevgi desam».

M. Leviev: «Farg'ona", "Paxta taronasi", "Kuylang marhabo ovozim", "Dilistonim sen mening".  
 A. Muxammedov: «Go'zal Farg'ona".  
 Q. Mamirov: "Quyosh yurtim".  
 N. Norxo'jaev: «Toshkent shahrim", "Kapalak va kamalak", "Diyor madxi"  
 X. Rahimov: «Sevimli yorim", "Yigit qo'shig'i", "Baht kuyida sayrayman", "Jonim fido" musiqali dramasiidan "Fazilat qo'shig'i".  
 Sh. Ramazanov: «Yor kelur", "Bittasi», "Qo'shiq kuylab", "Bahor bo'lib".  
 Yu. Rajabiy: «Ra'nolanmasun",  
 M. Ashrafiy "Kashmirda", "Yoshligim", "Vatan qo'shig'i"  
 D. Saidaminova: «O'zbekiston keng jahonim».

F. Sodiqov: "Quyosh o'lkasi", "Dutorim".  
 A. Sayfiddinova: «Muxabbat».  
 G'. Toshmatov: «Sog'inib», "Istardim".  
 R. Tursunov: «G'amzasin sevding ko'ngil», "Oshkor o'lsin".  
 B. Umidjonov: «Sevgi xajr».  
 O. Chichkov: «Leti, moyo solntse».  
 F. Shubert: «K muzike», «Uteshenie v slezax», "Jaloba devushki", "Pod'yom duxa", "Serinada".  
 S. Yudakov: «Karnaval valsi», « Kuylama, soxibjamol», «Maysaraning ishi» operasidan Hidoyatxon, Cho'pon va Oyxon ariyalari.  
 M. Yusupov: «Baxtim madorib bor», "Mahliyo".  
 N. Xasanov: "O'ynab o'ting, shabodalar", "Yayra go'zal".  
 Z. Shaxidi: «Zi so'zi sino"(ishq o'tida).  
 S. Raxmaninov "Polyubila ya na pechal svoyu"  
 Kalman "Silva" operettasidan "Silva va Edvin dueti"  
 Yu.Chichkov "Rodnaya pesenka", "Leti moyo solntse".  
 M. Glinka "Esli vstrechus' s toboy", "Skaji zachem", "K ney".  
 M. Minkov "Ti na svete yest'"  
 P. Bulaxov "Zabudu l'ya", "I net v mire ochey".  
 G. Struve "Muzika",  
 Konsuello Velaskes "Besame mucho"  
 Stevie Vonder "Love Me tender"  
 E. Kapua "Moyo solnyshko"  
 Italyan xalq qo'shig'i "Santa Lyuchiya"  
 S.Xayitboev: "O'qi, a'lo bilim ol". "Kimning xati chiroyli".  
 M.Yusupov: qayta ishlangan xalq qo'shiqlari "Yor-yor", "Sog'indim"  
 Sh. Shayimardanova: «Muhabbat valsi».  
 P. Chaykovskiy: «Xotel bi v yedinoe slovo», "To bilo ranneyu vesnoyu"  
 G'. Qodirov: "Mehalik qiz qo'shig'i", "Oq oltin taronasi".  
 M. Ashrafi: «Dilorom» operasidan Nu'mon ariyasi.  
 F. Alimov: «Ohanga to'lsin diyor», "Go'zal shahrim".  
 R. Abdullaev: «Vatan tongi», "Piyola".  
 T. Azimov: «Bulbuling bo'lay".  
 M. Burxonov: «Ishqida», "Dilbarimo".  
 S.Boboev: "Sog'inib keldim», "Vatan ishq" musiqali dramasidan Subhonqul ariyasi, "Hamza" operasidan "Shohimardon" Xamza ariyasi.  
 M. Balakirev: «Oboymi, potseluy».  
 M. Glinka: «Nochnoy zefir».  
 A. Dargomishskiy: «Mne grustno».  
 S. Jalil: «Ko'nglim guli», "Ey, sarbon".  
 T. Jalilov: «Ayrilish», "San'atkor qizga".  
 D. Zokirov: «Intizor etding meni",  
 X.Izomov: «Shonli edim".  
 K. Kenjaev: «Bitta o'zim bilaman".  
 V.Kalinnikon: «Na starom kurgane".

M. Leviev: «Qachon kelasan», «Tashbolta oshiq» musiqali dramasidan Teshaboy ariyasi, «O'zbek qizi ovozi», «Zavqim sig' mas dilimga», «Yulduz va qizlar ashulasi»,

D. Zokirov, B. Zeydman: «Zaynab va Omon» operasidan Omon va Xuri ariyalari.

X. Rahimov: «Ma'lum emas».

Yu. Rajabi: «Bozurg'oni».

T. Sodiqov: «Muborak», «Jonon ko'rinur».

R. Falvo: «Skajite devushki».

S. Yudakov: «Maysaraning ishi» operavidan Mullado'st va Hoji Darg'a ariyalari.

M. Yusupov: «Baxtim madorim bor», «Ko'nglim sigohi bilan umring o'tar e'zoz bilan».

S. Xayitboev: «Xayollarim», «Ishq fasli».

I. Hamroev: «Oy jamol» operasidan Boltaboy qo'shig'i.

N. Xasanov: «O'ynab o'ting shabodalar», o'zbek xalq qo'shiqlaridan «Kuyida», «Ey nozanin».

### **Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni**

Talaba mustaqil ishini tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalardan tegishli bo'lim va mavzularni o'rganish;
- vokal mashg'ulotlarining tegishli qismi bo'yicha tarqatma materiallar bilan tanishish;
- fanning tegishli bo'limi bo'yicha mahsus adabiyotlar bilan ishlash;
- audio, video apparatura va ta'limning boshqa TV dan foydalanish;
- vokal asarlarini o'rganish va tahlil qilish;
- o'rganilayotgan bo'lim va mavzular bo'yicha o'quv-ilmiy-tadqiqot ishlarni olib borish;
- ijodiy va muammoli o'quv topshiriqlarni bajarish.

### **Tavsiya etiladigan mustaqil ishlar mavzulari:**

1. Vokal tarbiyasidagi asosiy musiqa- pedagogik printsiplari.
2. Tovush apparatining tuzilishi va harakatlanishi.
3. Musiqa – badiiy va vokal-tehnikaviy rivojining birligi.
4. Vokal pedagogikasining asosiy uslublari.
5. O'zbek milliy honandalik uslublari.
6. Oliy asab sistemasining fiziologiyasi. Asab sistemasining tuzilishi va harakatlanishi.
7. Oliy asab faoliyatining asosiy qonunlari.
8. Ashulachilik sezgilarining xususiyatlari.
9. Ashulachilikda nafas.
10. Ashulachilikda orfoepiya.

11. Asosiy vokal ko'nikmalarining shakllanishi yo'llari.
12. Ovozning registrlik tuzilishi. o'zgarish notalar. «Ovoz o'tish» tushunchasi. Uning paydo bo'lishiga tarihiy asoslar.
13. Tovush hujumi turlarining paydo bo'lish mexanizmi.
14. Tovush «tayanchi» tushunchasi. «Tayanch» sezgini topish uchun usullar.
15. Unli tovush orqali so'zsiz ashula aytish (vokalizatsiya) turlarini rivojlantirish
16. Kantilena -ashulachilik asosi.

### **Dasturning informatsion-uslubiy ta'minoti**

Mazkur fan o'qitish jarayonida ta'limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot - kommunikatsion texnologiyalari qo'llanilishi nazarda tutiladi:

- musiqa o'qitish nazariyasi fani bo'yicha nazariy bilimlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari saytlaridagi elektron darsliklar namunalaridan foydalanish;
- o'rganiladigan asarlar ijrosi yozilgan musiqiy disketlar, CD, DVD, MP3 va magnetofon kassetalari;
- musiqiy yozilgan hujjatli disklar;
- Zamonaviy texnologiyalarni dars jarayonida qo'llash; musiqa darslarida tarbiyaviy ishlarni olib borishga va musiqaga bo'lgan qiziqishni uyqota olishga, talabalarda badiiy ijrochilikni shakllanishiga, musiqiy did va bilimlarini kengaytirishiga asos bo'ladi.

### **Didaktik vositalar**

Jihozlar va uskunalar, moslamalar: elektron doska – Hitachi, LCD – monitor, elektron ko'rsatgich (ukazka).

video – audio uskunalar- video va audiomagnetofon, mikrofon, kolonkalar.

kompyuter va multimediali vositalar: kompyuter, Dell tipidaqi proektor, DVD – discovod, Web – camera, video ko'z.

### **Foydaniladigan asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar ro'yxati**

#### **Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalar**

1. Qahharov N.B. “Vokal asoslari”. Darslik. Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2008 y.
2. Jalilov M.R; «Qo'shiqlar hrestomatiyasi». O'quv qo'llanma. Toshkent: TDPU, 2002 y.
3. Qahharov N.B., Murodov Yu. “Yakkahon kushikchilik”. O'quv qo'llanma. Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2008 y.
4. Qahharov N.B., Ayubov K. “Vokal san'ati asoslari” . O'quv qo'llanma. Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2008 y.
5. Qahharov N.B. «Vokal ijrochiligi». O'quv qo'llanma. Toshkent: “Iqtisod-moliya”, 2008 y.

### **Qo'shimcha adabiyotlar**

1. «O'zbekiston Vatanim manim» to'plam I, II, III, IV qismlar. Toshkent:Mehnat, 1997.
2. Sadirov J.S., , Qahhorov N.B., Abdurashidova N.A. «Qo'shiqlar hrestomatiyasi».Toshkent: TDPU. 1996.
3. Jalilov M.R, Sadirov J.S: «Qo'shiqlar hrestomatiyasi». Toshkent: O'qituvchi. 1995.
4. Аден Г. «Хрестоматия вокально-педагогического репертуара (для баритон и баса). М. 1966.

### **Elektron ta'lim resurslari**

1. [www.tdpu.uz](http://www.tdpu.uz)
2. [www.pedagog.uz](http://www.pedagog.uz)
3. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
4. [www.edu.uz](http://www.edu.uz)
5. [tdpu-intranet.ped](http://tdpu-intranet.ped)



